

Volume 1 Issue 4
August 2023

ISSN: 2992-8877

Innovation Science and Research

International scientific journal



**International Scientific Journal
INNOVATION
SCIENCE AND RESEARCH
Volume 1 Issue 4
August 2023**



SCIENCEJOURNAL.UZ

International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH. volume 1 issue 4 – 40p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



Editorial	
Editor in chief Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich	Bosh muharrir Jurayev Ziyovuddin Muhibdinovich
Preparing for publishing Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	Nashrga tayyorlovchi Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD	
<p>Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p>Artikova Nargiza Shuxratovna <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p>Koziev Umidjon Yandashalievich <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p>Dilfuza Jalolova <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p>Umarova Maxliyo Yunusovna <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p>Arslanov Sharafutdin Sultanovich <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p>Oripov Orolboy Ahmedovich <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p>Artikov Askar Akbarovich <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>	

Darvishov Ibroxim

Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"

Sevara Nazarova

Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.

YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi
Toshkent Moliya instituti, "Bank ishi" kafedrasи o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8218461>

Annotation. This thesis highlighted the advantages of using green energy today.

Keywords. Green energy, renewable energy sources, "Green Economy", "Masdar".

Аннотация. В этой диссертации были освещены преимущества использования зеленой энергии сегодня.

Ключевые слова. Зеленая энергия, возобновляемые источники энергии, "зеленая экономика", "Масдар".

Annotatsiya. Ushbu tezisda bugungi kunda yashil energiyadan foydalanish afzalliklari yoritib berildi.

Kalit so'zlar. Yashil energiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, "Yashil iqtisodiyot", GES, IES, "Masdar".

Yer yuzida insoniyatning ko'payishi energiyaga bo'lgan talabni tobora oshirib bormoqda. 20-asrning 2-yarmidan boshlab asosan elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj juda oshib ketishi kuzatilgan. Energiya tejamkorligini boshqarish usulida ishlab chiqarish hajmini saqlagan holda, yoqilg'i energetika resurslarining iste'molini kamaytirish maqsadida boshqarish faoliyatiga ta'sir qiladi. Energiya iste'molining o'sishi, energiya resurslarining kamayishi va qimmatlashishi, importga bog'liqligining kuchayishi, atrof muhitning ifloslanishi energiya tejamkorligiga erishish, an'anaviy energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish muammolarini hal etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ana shu omillar Energetikani jadal rivojlantirishga turki bo'lgan. Fan va texnika taraqqayoti energiya ishlab chiqarish va uni o'zgartirishning yangi usullarini ishlab chiqish, yangi samarali asbob uskunalar va texnologiyalarni yaratish, energiyani taqsimlashni markazlashtirish ya'ni aholini hududlar kesimida energiya manbalarini yetkazishda uzilishlar bo'lmasligi, to'g'ri taqsimlanishi borasidagi chora-tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda.

Iqisodiyotda energiya sig'imini oshirish uchun tiklanadigan energiya manbalarini ulushini jadal sur'atlarda rivojlantirish kerak. Tabiiy iqlim sharoitidan oqilona foydalanib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, jumladan, qishloq xo'jaligi, uyjoy komunal sohasi, aholi turar joylaridan kelib chiqib, quyosh, suv va shamol energiyasidan foydalanishni tizimli yo'lga qo'yish kerak. Chunki ushbu manbalarimiz tunganmas hisoblanadi hamda energiya manbasini olish bir muncha arzon tushadi. Yaqin kelajakda ushbu qayta tiklanadigan bu energiya manbalarimizdan foydalanishni yanada kengaytirib borsak, atmosferaga chiqadigan zarar ham birmuncha kamayadi.

Yashil energiya manbalaridan foydalanish avvalambor, iqtisodiyot hamda atrof-muhit uchun juda katta foya keltiradi. Yashil energiya dunyo kelajagining bir qismi bo'lib ko'rindi va bugungi kundagi ko'plab energiya manbalariga toza muqobil energiyalardan foydalanish usullari o'rganilib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Osonlik bilan to'ldiriladigan bu energiya manbalar ni nafaqat atrof-muhit uchun foydali, balki ish o'rnlari yaratilishiga, aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga, ularning daromad manbalar ko'payishiga ham olib keladi. Rivojlanish davom etar ekan, iqtisodiy jihatdan bu mamlakat taraqqiyoti uchun ham foydali bo'ladi. Turli xil yashil energiya yechimlarini ishlab chiqish orqali biz

barchamiz yashayotgan dunyoga zarar yetkazmasdan energiya ta'minoti uchun mutlaqo barqaror kelajakni yaratishimiz mumkin. Yashil energiya loyihalari ustida o'nlab yillar davomida ishlar olib borilib tajribalar ortdi. Misol uchun, hozirgi kunda an'anaviy usuldan, noan'anaviy "Yashil iqtisodiyot"ga o'tilmoqda. Ya'ni, Gidro elektr stansiyalari (GES), Issiqlik elektr stansiyalari (IES) dan ko'ra, noan'anaviy bo'lган quyosh elektr panellari oraqli, shamol, suv (dengiz suv sathining ko'tarilishi natijasida) kabi manbalardan foydalanishga o'tilmoqda. Insoniyat uchun quyosh energiyasi hozirgi kunda eng toza va eng ishonchli manba sanaladi. Yildan yilga quyosh energiyasidan foydalanish tobora ortib bormoqda. Chunki quyosh elektr energiyasi bitmas va tiganmas hamda atrof muhit uchun zararsiz manbadir. BAAning "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda Navoiy viloyati Zarafshon shahrida birinchi shamol elektr stansiyasi qurilishi boshlangan. Ushbu stansiya orqali 1.5mln xonadon yetarli elektr energiya manbasi bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Xususan bu borada "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda yirik loyihalar borasida ishlar olib borilmoqda. Insoniyat yashar ekan ko'payishda davom etadi, elektr energiya manbalariga bo'lган ehtiyojlari ham tobora ortadi. Shunday ekan bu borada turli manbalardan atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasi kam bo'lган muqobil energiya olish manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor resurslar, texnikalar va texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: "Universitet", 2020, 296 bet.
2. <https://www.tuni.fi/en/news/professor-mikko-hokka-conducts-research-improveenergy-efficiency-and-develop-safe-lightweight>
3. https://ewikiuz.top/wiki/Daniel_Yergin#cite_note-quest-epicc-49
4. Beder S. 2017, "Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness", Environmental Conservation, vol. 38, № 2, 140-150 pp.

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA POLISEMANTIK IBORALARNING O'RGANILISH BOSQICHLARI

Alimjanova Shohsanam Azamat qizi

*O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy Filologiya fakulteti Amaliy ingliz tili va
adabiyotshunoslik kafedrasi 1-bosqich tayanch doktoranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8220101>

Annotation-in this article, scientific, factual ideas about the polysemantic properties of phrases in English are put forward. Examples are presented through a study of two languages being compared to each other.

Keywords-meaning, phraseology, text, lexicon, line, context, phrase, section, sentence, syntax, polysemy, monosemia, synonymy, homonymy, paronymy, antonymy, singular, polysemantic series, polysemantic structure, language.

Аннотация-В этой статье выдвигаются научные, фактические соображения о многозначных свойствах английских выражений. Примеры приводятся в исследовании перекрестного сравнения двух языков друг с другом.

Ключевые слова – значение, фразеология, текст, лексика, уровень, текст, фраза, раздел, предложение, синтаксис, многозначность, моносемия, синонимия, омонимия, паронимия, антонимия, единство, многозначный ряд, многозначная структура, язык.

Annotatsiya – Ushbu maqolada ingliz tilidagi iboralarning polisemantik xususiyatlari haqida ilmiy, faktiy fikrlar ilgari surilgan. Misollar ikki tilni bir-biriga o'zaro solishtirish tadqiqi orqali keltirilgan.

Kalit so'zlar – Ma'no, frazeologizm, matn, leksika, sath, tekst, ibora, bo'lim, gap, sintaktika, polisemiya, monosemiya, sinonimiya, omonimiya, paronimiya, antonimiya, birlik, polisemantik qator, polisemantik sturktura, til.

Ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan, yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lган va ma'nosi bir so'zga teng ma'nodagi so'zlar yig'indisi yoki gaplar yig'indisi ibora deyiladi. Iboralar tilshunoslikning frazeologiya bo'limida o'rganiladi, shuning uchun ham iboralarni frazeologizmlar deb ham ataymiz. Bundan tashqari tilshunoslikning frazeologiya bo'limi shu sohaning taraqqiyoti, frazeologiya sohasiga muhim hissa qo'shan tilshunos olimlar, frazeologik ma'no, frazeologik polisemiya, qarama qarshi ma'noli iboralar, iboralar sinonimiyasi, frazeologik paronimiya va paraforma, iboralar omonimiyasi, iboralar variatsiyasi, frazeologizmlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlari va boshqalar o'rganiladi.

Ma'lumki, tilshunoslikda frazeologiya uzoq yillar davomida leksikologiya tarkibida o'rganib kelingan. Chunki frazeologik birliklar tildagi so'zlarning ekvivalentlari hisoblanib, leksikologiya esa tilning lug'at sostavini tashkil qiluvchi so'zlar va ularning ekvivalentlarini o'rganuvchi disiplina deb ataladi. Keyingi yillarda frazeologiya tilning alohida disiplinasi yoki mustaqil til bosqichi bo'lganligi bois, frazeologiya - tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida, leksikologiya bag'ridan XX-asrning 50-yillridan boshlab mustaqil bo'lim, yangi soha sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning alohida lingvistik yo'naliш bo'lib shakllanishida, jumladan o'zbek frazeologiyasining dunyoga kelishida V.V.Vinogradovning muhim xizmatlari bor. Chunki sobiq sho'rolar davrida mustamlaka xalqlari tillari frazeologiyasi shu olim ta'limoti asosida paydo bo'ldi. Chet el

tilshunosligida ba'zan frazeologiya leksika yoki stilistika tarkibiga kiritiladi. Ko'pincha esa frazeologiyaning mustaqil til disiplinasi ekanligi G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslari tomonidan tan olinmaydi. Shunga qaramay ingliz frazeologiya maktabi ko'pgina olimlar tomonidan katta qiziqishlar bilan o'rjanildi. Jumladan, bu sohaning rivojiga akademik A.Shaxmatov, A.Yefimov, N.Shanskiy, A.Kunin, N.Amosova, V.Jukov kabi olimlar ayniqsa ingliz frazeologiya maktabi rivoji va taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Frazeologik birlik til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabaitga ega bo'lган lisoniy birlik frazeologik birlik deyiladi: tepe sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi; to show the white feather, to play the first fiddle. Frazeologik birlik ibora, frazeologizm, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi.

Frazeologik birliklarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Frazeologik birlikning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo'ladi.
2. Frazeologik birlik yaxlit bir lug'aviy ma'no ifodalaydi.
3. Frazeologik birlikning tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi.
4. Frazeologik birlik turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik holatda bo'ladi.
5. Frazeologik birlikni faqat yaxlitligicha almashtirish mumkin
6. Frazeologik birlik gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.
7. Frazeologik birlikni boshqa tilga so'zma – so'z tarjima qilib bo'lmaydi, yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Frazeologik birlik tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologik birlik lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lган umumiylig tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Demak frazeologik birikma nutq hodisasi emas, balki til hodisasidek. Shuningdek, frazeologik birlik nominativ ma'no anglatadi, shunga ko'ra leksema bilan bir qatorga qo'yiladi, leksemadan yirik nominativ birlik deb yuritiladi.

Tilning frazeologik sostavi juda keng ma'noga va stilistik bo'yoqlarga ega. Frazeologik birliklar bilan so'zlarni butunlay ekvivalent sifatida qarash yaramaydi. Chunki, frazeologik birliklar doim ham so'zlarning o'rnini bosa olmaydi. Frazeologik birliklar hamda so'zlarning strukturasi va ma'nolarida juda ko'p farqlanish alomatlari mavjud bo'lib, ularning morfologik va sintaktik funksiyalari ham turlichadir. Tarkibiga ko'ra so'zlar yaxlit holda, frazeologik birliklar esa alohida holda gap va so'z birikmalari kabi hosil bo'ladi. Bu xususiyatlar ularning talaffuzi va yozilishida o'z aksini topgan. Frazeologik birlik lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi- bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi; Several candidates are already jockeying for position. 3. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda sonda ro'y berib turibdi; Talks between staff and management will resume after a two week cooling off period. 4. Kovushini to'g'rilib qo'yish kerak; The sky is the limit. 1- va 2- gaplarda frazeologik birliklar gap markazi- kesim mavqeida, 3-gapda so'z kengaytiruvchisi – aniqlovchi va 4- gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan. Frazeologik birlik tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi

ko'rinishidagi frazeologik birlik: ko'ngli bo'sh, jig'iga tegmoq; heavy father, to take care va hokazo. Gap tipidagi frazeologik birlik "gap kengaytiruvchisi+ kesim" qolip mahsuli: istarasi issiq, kapalagi uchib ketdi; to let the cat out of the bag; Ayrim leksik birliklar frazeologik birlikning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: dardisar, toshbag'ir.

Demak, leksema hosil bo'lish manbalaridan biri – frazeologik birlikdir. Ma'no turlari jihatidan iboralar asosan 2 turga bo'linadi: 1. Nomlovchi iboralar. Bular ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan quyidagi gaplarda ishlatilgan iboralar 1- ibora narsaga xos belgining nomi (do'ppining tagidakkina- nisbatan juda kichik; dull as lead;), 2- ibora –harakat holatning nomi (og'iz ko'pirtimoq- ko'p maqtanib gapirmoq; loose as a goose;), 3- ibora harakatga xos belgining nomini (eshikdan kelmay teshikdan – shu zahotiyoy; like a dog with two tails;) 2. Ifodalovchi iboralar. Bular juda oz. Masalan quyidagi gapda ishlatilgan ibora voqelikni ifodalamaydi, balki munosabat ifodalaydi: Buni eshitib, azbaroyi xudo, tutaqib, isitmam chiqib ketdi. Your dad'll be all jacked up by now. Frazeologik birliklar asosan belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatic jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub. Fe'l turkumiga mansub frazeologik birliklar: me'dasiga tegmoq, holdan toymoq, og'ziga talqon solmoq; to be on the beam, to nose out; Sifat turkumiga mansub frazeologik birliklar: ko'ngli bo'sh, dili siyoh; loose as a goose, dull as lead; Ravish turkumiga mansub frazeologik birliklar: ipidan – ignasigacha, ikki dunyoda ham; in the soup, like a dog with two tails; Shuningdek, ingliz tilida predlogli frazeologik birliklar ham mavjud: in the course of, on the stroke of. Bundan tashqari undov so'zli va gapli frazeologik birliklar ham uchraydi: "Catch me!", "Well I never!" So'z gaplarga mansub frazeologik birlik: turgan gap, shunga qaramay; the sky is the limit, I'm easy; Frazeologik birliklar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatic xususiyati yetarli darajada o'rganilmagan.

Frazeologik birlik leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtaqi nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologik birliklari (holdan toymoq, ro'yobga chiqmoq; to kick the bucket, to agree like cats and dogs) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologik birliklar farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologik birlik qo'llanish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum tafovutlarga ega [30, 156]. — eskirgan frazeologik birliklar : alifni kaltak demoq, kallasini xam qilib; be born with a caul, moisten one's clay; — dialektal frazeologik birliklar: alag'da bo'lmoq, halak bo'lmoq; to play the advantages over somebody, mend like sour ale in summer; — ilmiy frazeologik birliklar: imkoniyatlар doirasi, chambarchas bog'lamoq; civil list, general ticket; — badiiy frazeologik birliklar: boshida yong'oq chaqmoq, qildan qiyiq axtarmoq; the afternoon of life, strike while the iron is hot; — so'zlashuv nutqi frazeologik birlikari: arpasini xom o'rmoq, boshi ochiq; make a long arm, to be on somebody's back; Frazeologik birliklarning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos. Frazeologik birlik ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialetik birligidan iborat. Frazeologik birlikning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir.

Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatic ma'noga ega xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologik birlik: burgaga achchiq qilib, ko'rpgaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; every cloud has a silver lining; denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay; as a matter of fact; kabi nomustaqlar frazeologik birliklar faqat grammatic vazifa bajaradi. Odatda, frazeologik birlikning ma'nosini bir leksema ma'nosiga teng bo'ladi. Biroq, hech qachon ular teng emas. Chunki, frazeologik birlik va leksema ma'nosini teng bo'lsa edi, unda frazeologik birlik ortiqcha bo'lib qolar edi.

Misol sifatida yoqasini ushlarloq frazeologik birligi bilan hayron bo'lmoq, yoki ingliz tilidagi to be in the dumps frazeologik birligi bilan to feel depressed leksemasing ma'nolarini qiyoslasak. Mazkur o'zbek tilidagi frazeologik birlik "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajublanmoq" bo'lsa, hayron bo'lmoq leksemasi "kutilmagan yoki tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq" ma'nosiga ega. Shuningdek, ingliz tilidagi frazeologik birlik "kutilmagan voqeadan o'ta darajada tushkunlikka tushmoq" ma'nosiga ega bo'lsa, to feel depressed leksemasi esa "shunchaki oddiy hodisadan ham o'zini tushkun holda his qilmoq" ma'nosiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati aks etgan. Biroq frazeologik birlik ma'nosida "o'ta darajada" va "so'zlashuv uslubiga xos, bo'yoqdor" ma'nolariga egaligi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasidan farqlanadi.

Demak, frazeologik birlikning ko'pincha ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Ko'rindiki, frazeologik birlik va leksema bir narsa yoki hodisani atasada, ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buranov D. A practical course in English lexicology. – T., 1990.
2. Abduazizov A., Sodiqov A., Bashakov N. Umumiyl tilshunoslik T., 1979.
3. Авашани Ю.Ю. Вопросы фразеологии. С., 1977.
4. Авашани Ю.Ю, Эмирова А.М. К семантической структуре фразеологических единиц. С., 1971.
5. Алексина А.И. Семантические группы во фразеологии современного английского языка. М., 1977.
6. Алексина А.И. Фразеологическая единица и слово. М., 1979.
7. Алексина А.И. Идиоматика современного английского языка. М., 1982.
8. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., 1963.
9. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. - М., 1969.
10. Buranov D. A practical course in English lexicology. – T., 1990.
11. Вакуров В.Н. Основы стилистики фразеологических единиц. М., 1983.
12. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. М., 1977.
13. Гаврин С. Г. Вопросы лексики, фразеологии и синтаксиса. Перль, 1974.
14. Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. – M., 1979.

QADRING BALAND BO'LSIN ONA TILIM

Begimqulova Zebiniso Saydivaliyevna
*Jizzax viloyati Zarbdor tumaniga qarashli 30- sonli umumiy o'rta
ta'lif maktabining musiqa fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8220216>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili va uning ahamiyati, zero, noyob xazinamiz - tilimizni asrash hammamizning burchimiz ekanligi, ona tilimizda yangrayotgan har bir so'z, insonga o`zgacha tuyg'u, o`zgacha ishonch berishi, g`ayratimizga-g`ayrat, kuchimizga-kuch qo`shishi, tilimizdagi iliq, betakror, serjilo so`zlar insonning qalb torlarini mohirona chertishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z: imlo, imlo qoidalari, mashqlar, to'g'rilash, kakografiya usuli til, ona tili, noyob, chet tili, davlat tili, sof, o'zbek tili, xorijiy til.

Annotation: this article provides information about the Uzbek language and its importance, after all, our unique treasure - the fact that it is all our duty to preserve our language, every word that sounds in our native language, gives a person a special feeling, special confidence, adds enthusiasm, strength, warm, unique words in our language, skillfully clicked the strings of a person's heart.

Keyword: spelling, spelling rules, exercises, correction, cacography method language, native language, unique, foreign language, state language, pure, Uzbek language, foreign language.

KIRISH (Introduction)

“Ona tili avvalo, ona allasi bilan uning betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir” deya aytilgan da`vatkor fikrlari biz yoshlarga o`zgacha shijoat beradi Lekin hozirgi axbarot-teknologiyalari asrida turli xorijiy til so`zlari ham kirib keldi. Bu tilimizning boyishi bilan bir qatorda, uning ba`zi hollarda buzilishiga ham olib kelmoqda. Kitob varaqlab turar ekanman, e`tiborimni bir adibning bildirgan mulohazasi o`ziga tortdi: “Nega ko`cha harakati qoidasini buzgan kishiga milisiya hushtak chaladiyu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi.” Abdulla Qahhorning ushbu fikrlari ayniqsa, bugungi kun uchun juda o`rinlidir. Chindan ham o`zbek tilidek boy, ravon va go`zal til yo`q. Asrlar davomida o`zligini yo`qotmagan, dunyoga Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodiralarni yetishtirib bergan nazm bog`iga oltindan haykal qadagan bu ganjina nega endi napisandlik bilan so`zlanishi kerak! Ijtimoiy tarmoqlarda “Ok”, “Paka”, “Vapshe” kabi so`zlarni ko`p uchratamiz. Bu ham tilimizga nisbatan humatsizlidir, aslida biz bu bilan nafaqat o`zbek tili, balki, ingliz, rus tillariga ham zarar yetkazib qo`ymoqdamiz. Tilimizda shunday so`zlar borki, ularni boshqa tilga tarjima qilishning iloji yo`q. Birgina “Mehr” so`zini oladigan bo`lsak, bu so`zni aynan tarjima qilishga ojizmiz. Chet el tillarini tarjimasida ham bu so`zga yaqin ma`noli, sinonimlardan foydalanim o`giriladi. Bizning tilimiz ana shunday dunyo filologlarini ham shoshiltirib qoyadi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning tarixiy o`rni va ahamiyatini inobatga olgan holda davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning uzviy davomi sifatida 2020 yil 10 aprel kuni Prezidentimiz tomonidan O`zbekiston Respublikasining “O`zbek tili bayrami” kunini belgilash to`g`risida”gi Qonuni imzolandi. Unga muvofiq 21 oktyabr sanasi yurtimizda “O`zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Bu bilan davlat ramzlaridan biri sanalgan ma`naviy qadriyatimiz – ona tilimiz qonun himoyasida ekanligi yana bir bor o`z isbotini

topdi. Ushbu bayramning mamlakatimizda keng nishonlanishi ona tilimizga e'tiborni yuksaltirish, uning mukammaligi va boyligini ko'rsatib bera olish, nafaqat o'zbek xalqi, balki boshqa millat vakillarini ham beba ho boyligimiz hisoblangan tilimiz va madaniyatimizni o'rganishga ilhomlantirishda xizmat qiladi. Biz esa o'z navbatida tilimizning pokligi va o'ziga xosligini saqlash, uni boyitish va takomillashtirishga o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor. Zero, noyob xazinamiz - tilimizni asrash hammamizning burchimizdir. Shunday ekan, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga doir hujjatlar ijrosini ta'minlash uchun Transport vazirligi va uning hududiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlarida rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi va hujjatlarning davlat tilida qat'iy yuritilishini ta'minlash ishlari bo'yicha mas'ul xodimlar tayinlandi, tegishli vazifalar belgilangan holda buyruqlar, chora-tadbirlar rejali iishlab chiqilib, ijroga qaratildi. Ona tilimizda yangrayotgan har bir so'z, insonga o'zgacha tuyg'u, o'zgacha ishonch beradi, g`ayrfatimizga-g`ayrat, kuchimizga-kuch qo'shadi. Tilimizdag'i iliq, betakror, serjilo so`zlar insonning qalb torlarini mohirona chertadi, betobni sog`aytiradi. Bu haqiqat. Bir so'z bilan insonga dunyolarni hadya etish mumkin yoki aksincha. Eng qattiq berilgan zarba bu til bilan bo'lar ekan. Xalqimizda bejizga "Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi" deyilmaydi.

Yaqin kunlarda insonni faxrlantiradigan, barcha o'zbek xalqini etini jimirlatadigan voqeanning guvohiga aylandik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarlarida sof o'zbek tilida nutq so'zladilar. Bir yuz to'qson uch davlat vakillari va dunyo televideniyasida o'zbek tili yangradi.

Muhabbat, sadoqat koshonasida,
Humo qush parvozi peshonasida,
Uchinchi renessans ostonasida
BMTda yangragan Navoiy tili!

Tariximsan, taqdirimsan, kelajagimsan, ona tilim...

Tarixdan so'z ochsalar, mag'rurlanadigan shonli tarixga egamiz. Hech ikkilanmay "Tarixim Navoiyning so'zida, Qoshg'ariyning baytida, Boburning o'tli ruboiylarida", - deya olamiz. Taqdirim, shul Vatanning murg`ak farzandiman, u bilan qismatdoshman. Baxtim ham, iftixorim ham shu. Keljakka aytaladigan so'zim bor, Bu omadim, Ollohamonidan berilgan imkoniyatdir. Men aminmanki, o'zbek tili mangu yashaydi. Yana ming yillar davomida qalblarnimizni zabit etaveradi.

Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamонавиу ахборот ва педагогик texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germanektiiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi.

Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so'zi lotincha kakos – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so'laridan olingen bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzattirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan. Rus tilida какофонический, какофония degan so'zlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda qulooqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga o'xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan

qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

Masalan, o'quvchilarning og'zaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas'ul, daryo kabi so'zlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma'sul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo'yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida "O'zbek tilining imlo qoidalari"dagi "Ayrim unlilar va undoshlar imlosi" yuzasidan tegishli nazariy ma'lumotlar mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So'zlarni o'qing, xato yozilgan o'rnlarni topib, o'zbek tilning imlo qoidalariiga mos ravishda ularni to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing.

Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kampyuter, maylis va hokazo.

To'g'ri yozilishi: orombaxsh, zaxira, xohish, hol-ahvol, xiyonat, ixlos, har xil, hamma, Hindiston, xatti-harakat, xayol.

Kakografiya usuli leksikologiya bilan bog'liq mavzularni o'tishda ham qo'l keladi. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, halok-halak, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, oxir-axir-oxur, chog'-choq-choh singari paronim so'zlarni xato yozib, o'quvchilardan ularni to'g'rilab yozishni so'rash ulardag'i bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

Xato yozilgan paronim so'zlarni toping, ularni imlo qoidalariiga mos ravishda to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring.

Birovga choq qazisang, o'zing tushasan. Mart bir o'ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo'lidan chiqadi. Onangni kiftingda ko'tarsang, singlingni kaftingga ko'tar.

Gaplardagi choh, mard, momard, qars, kaft, kift, yod so'zları noto'g'ri yozilgan. Buni faqat o'ylash, fikrlash, leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardag'i mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlanтирди.

Bunday topshiriqlar o'quvchilardagi ko'rish, eslash, narsalarni bir-biriga solishtirish va zaruriy xulosalar chiqarish kabi aqliy-ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Umuman olganda, biz – yoshlar vatanimiz O'zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o'rganish borasida yagona to'g'ri yo'l turibdi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgan o'zbek tilini mukammal o'rganishimiz, og'zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo'lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan

samarani berishi mumkin. Zero, davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda
2. Qilichev B., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
3. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.

**BADIY TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLAR O'RTASIDAGI
FARQLAR**

Tursunova Marxabo Raxmonovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“ Tarix va filologiya ” kafedrasи assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8253294>

Annotatsiya.

Badiiy matnlar ko'pgina lingvistik xususiyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy va madaniy jihatlarni ham namoyon etadi. Adabiyot inson hayotining mazmuni sanaladi va shuning uchun badiiy tarjima madaniyatlar o'rtasidagi asosiy usullardan biri hisoblanadi. Biroq badiiy matnlarni tarjima qilish oson ish hisoblanmaydi, chunki bu jarayonda tarjimn ikkala til va ikki xalq madaniyatidan ham xabardor bo'lishi kerak. Shu sababli tarjimonlar tilning ijtimoiy va nutq bilan bog'liq jihatlaridan xabardor bo'lishlari kerak hisoblanadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, tarjimon, badiiy matnlar, madaniy to'siqlar.

Аннотация.

Литературные тексты демонстрируют множество лингвистических особенностей, а также социальные и культурные аспекты. Литература считается сущностью человеческой жизни, и поэтому художественный перевод является одним из основных методов между культурами. Однако перевод художественных текстов – непростая задача, ведь в этом процессе переводчик должен знать как языки, так и культуры двух народов. Поэтому переводчики должны знать о социальных и речевых аспектах языка.

Ключевые слова: художественный перевод, переводчик, художественные тексты, культурные барьеры.

Annotation.

Literary texts exhibit many linguistic features as well as social and cultural aspects. Literature is considered the essence of human life, and therefore literary translation is one of the main methods between cultures. However, translating artistic texts is not an easy task, because in this process the translator must be aware of both languages and cultures of two peoples. Therefore, translators should be aware of the social and speech-related aspects of the language.

Key words: artistic translation, translator, artistic texts, cultural barriers.

Tillar va madaniyatlarning xilma xilligi va muloqot qilish zarurati inson hayotida tarjimaning muloqot almashishida juda samarali omil bo'lishiga sabab bo'lgan hisoblanadi. Binobarin, turli millatlar orasidagi farqlar badiiy tarjima jarayonida mihim rol o'yaydi. Shu jihatdan aytish mumkinki, til va madaniyat bir-biriga o'xshaydi, bir- biri bilan chambarchas bog'liq va tarjima jarayonida ikkalasini ham hisobga olish zarurdir.

Biron matni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish lingvistikaga oid jarayondir. 1980 yillardan oldin tilshunoslar til nazariyasi va tarjima orasidagi bogliqlikka juda kam ahamiyat berishgan. Chunki bunday bog'liqlik avval o'tilmagan va tarjima nazariyasi astasekinlik bilan rivojlana borgan, bu jarayonning sust bo'lishiga bir sabab tilshunoslar til hodisalarini tarjimaga qo'llamaganligidir. Tarjimonlar til nazariyasida matn, semantika

nazariyasini qo'llamoqdalar. Tilshunoslik nazariyasi tarjima nazariyasi bilan juda muhim aloqadorlikda bo'lib, uni tarjima jarayonida amalda tadbiq qilinadi.

Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish ob'yekti bo'lishi zarur. Unda tahlil va uyg'unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e'tibor qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarjima m urakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillami o'z ichiga oladi. Tarjimaning har xil aspektlari yuqoridagi fanlar metodlari bilan o'rganilishi mumkin.

Tarjimashunoslikda tarjimani qanday amalga oshirish kearkligi bo'yicha aniq usul yoki bir xil ko'rsatmalar mavjud emas. Barcha tarjimonlarning maqsadi manbadagi atamalar va tushunchalar o'rtasidagi mutanosiblikni topish hisoblanadi.

Biroq kerakli so'zlarning ayni tarjimasini toppish murakkab jarayon bo'lib, u o'z ichiga ma'nolarni bir tildan ikkinchi tilga xatosiz o'tkazishni maqsad qilib oladi. Bu o'rinda tarjimonning eng mas'uliyatli vazifasi ikkala til o'rtasidagi madaniy tafovutlarni bog'lashdir. Bu ularning o'ziga xos madaniyatiga chuqur e'tibor berishni o'z ichiga oladi.

Badiiy tarjima – bu umumiy tarjimadan ajralib turadigan tarjima turi hisoblanadi. Tarjimashunos olimlar o'rtasida muhokama qilib kelinadigan masala bo'lib kelgan o'ziga xos xuxsusiyat sanaladi. Demak, tarjimaning bu turi madaniyatlararo muloqot turi sanaladi.

Badiiy tarjima san'at sifatida qaralganligi sababli, u xayoliy, aqliy ongni vas hu bilan birqalikda muallifning o'z fikrlarini aks ettirishi kerak. Chunki adabiy matnlar ko'p lingvistik xususiyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy va madaniy xususiyatlarni ham namoyon qiladi. Badiiy tarjima madaniyatlar o'rtasidagi aloqa bo'lishi bilan birqalikda inson hayotining asosiy yo'llaridan biri sifatida qaraladi.

Til-madaniyat vositasidir va uning xususiyatlarini aks ettiradi va shuning uchun biz hech qachon tarjima jarayonida berilgan ma'lumotlarning madaniy jihatini inkor eta olmaymiz. Demak, tilni tarjima qilish shunchaki o'sha xalqning madaniyatini tarjima qilishni anglatadi, chunki madaniyat bu tilning mohiyati sanaladi.

"Madaniyat" so'zi birinchi marta ingliz olimi Edvard B. Tayloming 1871 yilda nashr etilgan "Primitive Culture" kitobida foydalanilgan. Tayloming fikriga ko'ra, madaniyat bilim, ishonch, qonun, an'analar va jamiyatning turli a'zolari tomonidan qabul qilingan turli odatlarni o'z ichiga oladi. Tarjima biror matnning shunchaki ekvivalenti emas, bu asl nusxani qayta yozishdek qiyin va murakkab jarayon. Bu bir madaniyatning boshqasiga ta'siri. Tarjima faoliyatini tushunish uchun, biz madaniyat va til tushunchalarini aniqlashtirib olishimiz, til va madaniyat o'rtasida aloqalariga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Lingvist Gari Vizerspun bu aloqalarga o'z fikrini bildirib yozadi: "Agar biz madaniyatga lingvistika nuqtai nazaridan qaraydigan bo'isak, madaniyatning bir tomonlama tushunchasiga ega bo'lamiz. Agar tilga madaniyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, tilning bir tomonlama tushunchasiga ega bo'lamiz"

Madaniyat atamasini mohiyatini aniqlash juda murakkabdir. Nyumarkning so'zlariga ko'ra, "Madaniyat- ma'lum bir tildan foydalanilgan jamiyatga xos bo'lgan hayot va uning ko'rinishlari ifodasi yo'lidir", shuning uchun har bir lingvistik jamiyat o'ziga xos madaniy xususiyatga ega.

Tarjima ko'zgu tasviri hisoblanmaydi, tarjimon o'z mahoratini ko'rsatganda juda ehtiyyot bo'lishi lozim, bunda ma'nolarni ifodalashda ularni almashtirmalikka ahamiyat berishi kerak hisoblanadi. Tarjimon o'sha xalq tili va madaniyatini yaxshi biladigan mahoratli yozuvchi bo'lishi talab qilinadi. Shu sababli tarjimonga katta masuliyat yuklanadi, zero u kitobxonlar va tanqidchilarni har tomonlarni mamnun qilishi asosiy yutuqlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Alekseeva .I.S.»Tarjima nazariyasining asoslari». S.Pb... 2000 yil.
2. Lvovskaya Z.D.»Tarjimaning nazariy muammolari . M : Ilm - fan, 1985.
3. Kazakova. T. A.»Tarjimaning amaliy asoslari". S.Pb ... 2001 yil.
4. Komissarov V.N.»Tarjima nazariyasi»M: Oliy shk.. 1990 yil
5. Xudayberdiyeva O'. K.»Tarjima pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari".
Bibliography
a. Books
 1. Baker, M. (2000), "Linguistic perspectives on translation", In: France, P. (ed.), The Oxford Handbook of Translation Studies.
 2. Baker, M. (1992), In other words. A coursebook on translation. London: Routledge.
 3. Bassnett, S., (1991), Translation Studies, Routledge, London
 4. Baker, M. (1992), In other words. A coursebook on translation. London: Routledge.
 5. Bassnett, S., (1991), Translation Studies, Routledge, London.
 6. N. Brooks, (1968), Culture in the classroom. In JM Valdes (ed) Culture bound: bridging the cultural gap in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
 7. Newmark, P., (1988), A Textbook on Translation, Prentice Hall, New York

**EUPHORBIA FRANCHETII (B.FEDTSCH), EUPHORBIA CANESCENS (L) BA
EUPHORBIA HUMIFUSA (WILLD.) ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ ОШЛОВЧИ
МОДДАЛАРИ МИҚДОРИНИ АНИҚЛАШ**

R.N.Rakhimov¹, A.Dж.Kurbanova²

¹ЎзР ФА акад.O.C.Содиков номидаги биоорганик кимё институт, Мирзо Улугбек
кўчаси 83-уй, Тошкент 100143

²Тошкент вилояти Чирчик Давлат педагогика университети, Чирчиқ шаҳри Амир
Темур кўчаси 104-уй

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286383>

Аннотация

Euphorbia Franchetii (B.Fedtsch), Euphorbia Canescens L ва Euphorbia Humifusa (Willd.) ўсимликларининг фенол моддалари миқдори колориметрик ва стандарт усуллар ёрдамида ўрганилди. Калорометрик усул ёрдамида танинлар миқдори *Euphorbia Franchetii (B.Fedtsch)*, 12.47%, *Euphorbia Canescens (L)* 13.75% ва *Euphorbia Humifusa (Willd.)* 13.86% ни, стандарт усулда эса мос равишда 11,1 %, 12.25%, ва 10.87% ни ташкил этиши аниқланди.

Калим сўзлар: Танин, СЭМ, ТБМ, ТН, Фотоколорометрия.

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОСТАВА РАСТЕНИЙ EUPHORBIA FRANCHETII
(B.FEDTSCH), EUPHORBIA SANESCENS (L) И EUPHORBIA HUMIFUSA
(WILLD.)**

R.N.Rakhimov¹, A.Dж.Kurbanova²

¹Институт биоорганической химии имени академика О. С. Содикова, улица Мирзо
Улугбека 83, Ташкент 100143

²Чирчикский государственный педагогический университет, Ташкентская
область, улица Амира Темура 104, город Чирчик

Абстракт

Количество фенольных веществ растений *Euphorbia Franchetii (B. Fedtsch)*, *Euphorbia Canescens (L)* и *Euphorbia Humifusa (Willd.)* изучали колориметрическим и стандартным методами. Колориметрическим методом количество дубильных веществ в молочаях *Franchetii (B.Fedtsch)* 12,47 %, *Euphorbia Sanescens (L)* 13,75 % и *Euphorbia numifusa (Willd.)* 13,86 % при стандартном методе составило 11,1 %, 12,25 %, и 10,87% соответственно.

Ключевые слова: танин, СЭМ, ТБМ, ТН, фотоколорометрия.

**DETERMINATION OF THE CONTENTS OF EUPHORBIA FRANCHETII
(V.FEDTSCH), EUPHORBIA SANESCENS (L) AND EUPHORBIA HUMIFUSA
(WILLD.) PLANTS**

R.N.Rakhimov¹, A.Dж.Kurbanova²

¹Institute of bioorganic chemistry named after Acad. O.S. Sodikov, Mirzo Ulug'bek street
83, Tashkent 100143

²Chirchik State Pedagogical University, Tashkent region, Amir Temur street 104,
Chirchik city

Abstract

The amount of phenolic substances of Euphorbia Franchetii (V. Fedtsch), Euphorbia Canescens L and Euphorbia Humifusa (Willd.) plants was determined using colorimetric and standard methods. Using the calorometric method, it was determined that the amount of tannins in Euphorbia Franchetii was 12.47%, Euphorbia Sanescens l 13.75%, and Euphorbia Numifusa (willd.) 13.86%, and in the standard method, it was 11.1%, 12.25%, and 10.87%, respectively.

Key words: Tannin, WSS, NTS, TN, Photocolorimetry.

Кириш. Маҳаллий истиқболга эга бўлган ўсимликлар орасидан полифенолларга бой бўлган ўсимликларни излаб топиш ва улар асосида самарали дори воситаларини яратиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Доривор ўсимликлар таркибида биологик фаол моддалар-углеводлар, оқсиллар, органик кислоталар, эфир мойлари, алкалоидлар, витаминлар билан бир қаторда полифенол бирикмалар ҳам мавжуд бўлиб, улар терапевтик аҳамиятга эга [1-4]. Полифенол бирикмалар асосида яратилган воситалари кам заҳарли моддалар қаторига кириб улар асосида яратилган дори воситалари интерферон индукцияловчи, антиоксидант, антирадикал, антигипоксант, яллиғланишга қарши бир қатор хусусиятларга эга.

Эуфорбиядошлар оиласига мансуб бўлган ўсимликларнинг жаҳонда 160 яқин турлари кенг тарқалган бўлиб, шулардан 72 та тури Ўрта Осиёда, 33 та тури Ўзбекистоннинг Фарғона, Андижон, Наманган, Қашқадарё, Сурхондарё ва Тошкент вилоятларида кенг тарқалганлиги аниқланган [5].

Амалий қисм


Ўсимликлар таркибидаги ошловчи моддалар миқдори титрометрик, спектрофотометрик, колориметрик, нефелеометрик, стандарт, электрокимёвий ва бошқа бир неча усуллар ёрдамида аниқланади.

Стандарт ва колориметрик усуллардан фойдаланиб *Euphorbia Franchetii* (*B.Fedtsch*, *Euphorbia humifusa* (*willd.*) ва *Euphorbia canescens* L ўсимликлари таркибидаги ошловчи моддалар миқдори аниқланди [3]. Колориметрик усул ёрдамида танинлар миқдорини аниқлаш мақсадида ўсимликдан ажратиб олинган Галл кислота асосида калибрланган график чизилди. 0.05 г галл кислотани 100 мл сувда эритиб, умумий ҳажм сув билан 200 мл га етказилди. Шу эритмадан колбаларга намуналар олиб, унга pH 6.25 бўлган 5 мл фосфат буфер, 2 мл темиртартрат реактивидан қўшиб, сув билан умумий ҳажм белгигача етказилди. Ҳосил бўлган эритмаларнинг оптик зичликлари фотоэлектролориметрда ҳар 3 мин.да аниқланди (1-жадвал). Олинган натижалар асосида калибрланган график тузилди. Абсцисса ўқига галл кислота миқдорини, ордината ўқига оптик зичликни жойлаштирилди (1-график).

1-жадвал

Галл кислотанинг оптик зичликларининг ФЭК даги кўрсаткичлари

№	намуна хажми, мл	Оптик зичлик D	Галл кислота микдори, мкг	№	намуна хажми, мл	Оптик зичлик D	Галл кислота микдори, мкг
1	0.2	0.025	100	9	1.8	0.065	900
2	0.4	0.030	200	10	2.0	0.070	1000
3	0.6	0.035	300	11	2.2	0.075	1100
4	0.8	0.040	400	12	2.4	0.080	1200
5	1.0	0.045	500	13	2.6	0.085	1300
6	1.2	0.050	600	14	2.8	0.090	1400
7	1.4	0.055	700	15	3.0	0.095	1500
8	1.6	0.060	800	16	3.2	0.10	1600



1.График. Галл кислота асосида чизилган график.

Сувда эрувчи умумий моддалар (СЭМ) микдорини топиш учун ўсимлик хом ашёси сув билан экстракция қилиниб, экстрактлар умумий хажми сув билан 500 мл га етказилди. Шу экстраклардан 50 мл хажмли колбаларга пипетка ёрдамида намуналар олиниб, унга 5мл pH 6.25 бўлган фосфат буфер, 2 мл темиртартрат реактивидан қўшиб, умумий хажмни сув билан белгигача етказилди. Ҳосил бўлган эритманинг оптик зичлиги ФЭК да аниқланди. СЭМ микдори калибиранган график асосида ўрганилди. СЭМ микдори *Euphorbia Franchetii* да 14.85%,

Euphorbia Canescens да 16.25% ва *Euphorbia Humifusa* (*willd.*) 16.08% ташкил этганлиги аникланди.

Таннин бўлмаган моддалар (ТБМ) микдорини топиш учун 50 мл ҳажмли колбага махсус тери кукуни билан ишлов берилган экстрактдан намуналар олинди ва 5 мл pH 6,25 бўлган фосфат буфер, 2 мл темиртартрат реактивидан қўшиб, белгигача сув қўйилди. Колган ишлар юқоридагидек бажарилди. ТБМ микдори *Euphorbia Franchetii* да 2.38% *Euphorbia Canescens* да 2.5%, ва *Euphorbia Humifusa* (*willd.*) да 2.22% ташкил этганлиги аникланди.

СЭМ ва ТБМ микдорилари ўртасидаги фарқдан таннинлар микдори хисоблаб топилди. *Euphorbia Franchetii* 12.47%, *Euphorbia Canescens* 1 13.75% ва *Euphorbia Humifusa* (*willd.*) 13.86% ни ташкил этиши аникланди.

Стандарт усул бўйича ошловчи моддалар микдорини аниклаш.

Ошловчи моддалар микдорини аниклаш учун ҳар ўсимликларнинг ер устки қисмларидан 20г тортиб олиб, 150 мл сув билан 3 марта, 2 соат давомида сув ҳаммолида ($t^{\circ}=45-50$) экстракция қилинди. Олинган экстрактларни филтрлаб, умумий ҳажмни дистилланган сув билан 500 мл га етказилди.

Сувда эриган умумий моддалар микдорини стандарт усул бўйича аниклаш. Ўсимликнинг ер устки қисми экстрактидан пипетка ёрдамида 50 мл дан аввалдан доимий оғирликка келтирилган бюкларга намуналар олиб, сув ҳаммолида буғлатилди ва ўзгармас оғирликка келгунча қуритиш шкафида 105 $^{\circ}\text{C}$ да қуритилди. [3]

Сувда эриган умумий моддалар (СЭМ) микдорини қўйидаги формула орқали топилди:

$$\text{СЭМ} = \frac{Bm}{A\varrho} 100\% \quad \text{СЭМ} = \frac{500\text{мл} * 0.692\varrho}{20\varrho * 50\text{мл}} 100\% = 34.6\%$$

бу ерда: СЭМ - сувда эриган моддалар микдори; А - тажриба учун олинган хом ашё оғирлиги; В - умумий экстракт ҳажми; в - намуна учун олинган экстракт ҳажми; м - қуруқ қолдиқ оғирлиги;

Таннин бўлмаган моддалар микдорини аниклаш. 7.5 г теридан махсус тайёрланган гол кукунидан олиб, 7.5 мл 3% ли Cr₂O₃ эритмасидан ва ўн баробар қўп ҳажмда сув қўшиб, 45 минут колбада чайқатилди. Сўнг уни мато орқали филтрлаб, сув билан бир неча марта ювилди. Сўнг уни колбага солиб, юқоридаги экстрактдан 100 мл олиб яна 45 минут чайқатилди. Бунда ошловчи моддалар гол кукунига адсорбцияланиб, эритмада фақат таннин бўлмаган бирикмалар қолади. Аралашмани филтрлаб, аввалдан доимий оғирликка келтириб олинган бюкларга 20 мл дан намуналар олинди. Сув ҳаммолида буғлатилди ва ўзгармас оғирликка келгунча қуритиш шкафида 105 $^{\circ}\text{C}$ да қуритилди. [3]

Таннин бўлмаган моддалар микдорини қўйидаги формула орқали топилди:

$$TBM = \frac{1.3 * B * m}{A * \varrho} 100\% \quad TBM = \frac{1.3 * 500\text{мл} * 0.145\varrho}{20\varrho * 20\text{мл}} 100\% = 23.5\%$$

бу ерда : ТБМ - таннин бўлмаган моддалар микдори; 1.3 - суюлтириш коэффиценти; А - хом ашё микдори ; В - умумий экстракт ҳажми; в - тажриба учун олинган экстракт ҳажми; м - қуруқ қолдиқ оғирлиги;

Таннинлар миқдорини топиш. Сувда эриган умумий моддалар миқдори билан танин бўлмаган моддалар ўртасидаги фарқдан танинлар миқдорини ҳисоблаб чиқарилди:

$$TH = CEM - TBM$$

$$TH = 34.6\% - 23.5\% = 11.1\%$$

бу ерда : TH - танинлар миқдори;

Худди шу усулда иккинчи ва учунчи ўсимликлар экстракция қилинди ва ўсимлик массасига нисбатан 6.3%, 5.8 % полифеноллар йиғиндиси ажратиб олинди. Олинган натижалар қуйидаги жадвалда келтирилган (2-жадвал).

2- жадвал

Стандарт усул бўйича топилган *Euphorbia Franchetii*(B.Fedtsch), *E.Canescens* (L) *va Euphorbia humifusa* (Willd.) ўсимликларининг фенол моддалари миқдори.

Ўсимлик қисмлари	CEM %	TBM %	TH %
<i>E.Francheti</i> ер устки қисми	34.6	23.05	11.1
<i>E.Canescens L</i> ер устки қисми	30.5	18.25	12.25
<i>Euphorbia Humifusa</i> (Willd.) ер устки қисми	28.9	18.03	10.87

Стандарт усул бўйича *Euphorbia Franchetii* ўсимлиги таркибидаги ошловчи моддалар миқдори 11.1%, *Euphorbia Canescens* таркибида 12.25%, *Euphorbia humifusa* (Willd.) 10.87% ни ташкил этганлиги аниқланди. Колориметрик усул бўйича эса мос равишда 12.47%, 13.75 %, 13.86% ни ташкил этди. Бундан шуни хулоса қилиш мумкинки, колориметрик усулда танинлардан ташқари экстракт таркибида сақланиб қолган бошқа фенол моддалар ҳам темиртартрат реактиви билан таъсиралиши ҳисобига танинлар миқдори юқори кўрсаткични беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

- Холматов Х.Х., Ахмедов У.А. Фармакогнозия. -Т.: Ибн Сино, 1995.
- Флора Узбекистана. –Ташкент: 1959. –IV т.а. - с. 251; б. - с. 96.
- Euphorbia ferganensis* B.Fedsch ўсимлиги илдизидан ошловчи модда ажратиб олиш усули. / Абдулладжанова Н.Г., Мавлянов С.М., Абдуллаев Ш.В., Далимов Д.Н.// ЎзР ФА Маърузалари тўплами. 2000. № 9.
- Абдулладжанова Н., Мавлянов С., Холматов Д. *Euphorbia ferganensis* ўсимлиги ошловчи моддаларининг миқдорий таҳлили. // Илмий мақолалар тўплами. Наманган. 2000. -Б. 10-14.
- Гидролизланувчи танинлар миқдорини колориметрик усулда аниқлаш. / Абдулладжанова Н.Г., Мавлянов С.М., Абдуллаев Ш.В., Далимов Д.Н. // ЎзР ФА Маърузалари тўплами. 2000. № 10.
- Абдулладжанова Н.Г., Мавлянов С.М., Абдуллаев Ш.В. Колориметрик усул ёрдамида фенол моддалар миқдорини аниқлаш. // Ўзб. кимё журнали. 2001.

**BOSHLANG'ICH SINF KO'RISHDA NUQSONI BOR O'QUVCHILARDA ONA
TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH
JARAYONDAGI KREATIVLIK**

Akobirova Malika

Buxoro shahar 24-sonli "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8267715>

Annotation: from this article you can find out some recommendations and information on native language and reading literacy for children with visual impairments.

Keywords: visual data, maps and drawings, diagrams, accents, Braille, educational technologies.

Аннотация: из этой статьи вы можете узнать некоторые советы и информацию о родном языке и грамотности чтения для детей с нарушениями зрения.

Ключевые слова: визуальные данные, карты и рисунки, диаграммы, акценты, шрифт Брайля, образовательные технологии.

Annotatsiya: Ushbu maqoladan ko'rishda nuqsoni bor bolalarga ona tili va o'qish savodxonligi bo'yicha ayrim tavsiyalar va ma'lumolarni bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: visual ma'lumotlar, xarita va chizmalar, diagrammalar, urg'u, Brayl yozuvni, ta'lim texnologiyalari.

KIRISH (Introduction)

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, o'quvchilarning qobiliyatları, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning ota-onasi, farzandini unib-o'sishini , kamol topishini istaydi.Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurting biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg'ayadi. Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni yildan- yilga ortib bormoqda. Tug'ilgan bolalarning aksariyatida esa turli xil nuqsonlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar mavjud. Jumladan, ekologik holatning yomonlashuvi, turmush qurishda yo'l qo'yilgan xatolar va sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. Lekin hozirgi vaqtga kelib davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ushbu turdag'i shaxslarga ham keng yo'l ochdi. Maxsus maktablar hamda inklyuziv ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ularga ta'lim- tarbiya berish jarayoni davlat standartlariga javob bera oladigan darajada shakllanib bormoqda.

Eng asosiysi sohadagi malakali mutaxassislar pedagogik usul va chora tadbirlar yordamida ushbu shaxslardagi bir necha turdagи nuqsonlarni korreksiyalash ishlari yo'lga qo'yilgan. Shu jumladan, ko'rish nuqsoniga ega bolalarning ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda ham shu kabi holatlarni ko'rishimiz mumkin.

Ona tilini o'qitish asosan grafiklar va visual materiallarga asoslanganligi ko'rish imkoniyati cheklangan til o'rganuvchilariga qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki visual ma'lumotlar, xarita va chizmalar, diagrammalarda aks ettirilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun mustaqil amalga oshirilishi imkonsizdir. Bunda ma'lumotlarni o'zlashtira olmagan imkoniyati cheklangan o'quvchilar ko'plab imkoniyatni qo'ldan boy beradilar. Shunday holatda mustaqil o'rganish uchun ishtiyoq ular orasida yo'qolishi mumkin.

O'qib tushinish va yozuv ko'nikmasida aks etgan qiyinchiliklar barcha sohalar uchun odatiy holar bo'lishi mumkin lekin aynan ona tilini o'rganish sohasi uchun bu ayniqsa katta masala bo'lishi mumkin. Hujjatlardagi ma'lumotlar, matn mazmuni, so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yilishini aks ettirilmasligi bunday muammolar ichida eng yiriklaridir, Brayl yozuvini o'z ona tilisida o'rgangan odam uchun bu yozuvni chet tili uchun ham qo'llash ayniqsa imkoniyati cheklanganlar uchun qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Brayl yozuvida urg'u va ba'zi boshqa belgilarning bor ekanligi ularga yordam berishi mumkin lekin chalkashliklar hali ham juda ko'pligicha qolmoqda.

Shuningdek, ko'zida nuqsoni mavjud o'quvchilarda ona tilini o'rganishning samaradorligini oshirishda ta'lim olishning bir qancha texnologiyalari faol rivojlanmoqda. Jumladan, bunda ta'lim texnologiyalari pedagogika poydevoriga tayanadi va pedagogik metodologiyada o'z o'rnini aniq belgilaydi. Shunga asoslangan ravishda ta'kidlash lozimki, sog'lom insonlarga qaraganda ona tilini ko'zi ojiz bolalarda o'qitishda har bir pedagog quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishlari lozim:

1. Ta'lim olayotgan nuqsoni mavjud o'quvchilarning ma'naviy olamidagi orzu-istiklarini to'liq darajada o'rganish;
2. Yuqoridagi qiziqish va istaklarga asoslanib ular o'rganayotgan ta'limni motivatsion metodlar va texnologiyalar asosida tashkil qilish;
3. Ta'lim olayotgan sog'lom va nuqsoni mavjud o'quvchilar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhitni tashkillashtirish;
4. Ularga joriy qilinayotgan tilni o'rganishdagi pedagogik texnologiyalar vositalarni ularga to'gri keladigan va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir etmaydiganlarni amaliyotga kengroq qo'llashni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Bolalarning rivojlanishi o'quv dasturini o'zlashtirish uchun ularning psixik-jismoniy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish. Bola faolligi o'qish, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar va shu kabi faoliyat turlarida vujudga keladi. Ular qandpy bilish jarayonida jiddiy o'rin tutadi. Bolaning istalgan faoliyati va umuman rivojlanishning hal qiluvchi shartlaridan sanaladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish:

1. Sog'lom bola muhit bilan tabiiy muloqotda o'rganadigan narsaga maxsus o'qitish.
2. Faoliyatning barcha turlarida qatnashish va o'z vaqtida yordam ko'rsatish demakdir.

Ona tili darslarini tashkil etish jarayonida o'rganilayotgan o'quv dasturlarini kengroq tahlil etgan holda nuqsoni mavjud o'quvchilarining bilim va malakalarini rivojlantirishga o'ziga xos uslubda imkoniyat yaratilishi lozimdir. Bu borada, ona tilini o'rganishda o'quvchilarining qobiliyatiga, o'quv o'zlashtirish darajasiga hamda tilning fonetik, leksikologik va morfologik qurilishiga asosiy e'tibor berilishi zarur. Ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ona tili fanini o'qitishda sinf ishtirokchilarining til o'rganish borasidagi o'quv motivatsiyasini yuqori darajaga ko'tarish pedagogning mahoratiga bog'liq bo'ladi. Tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarining aniq maqsadlarni to'g'ri qo'yilganligi o'quvchilarining til o'rganish borasidagi qiziqishlarini oshirish eng avvalo ta'lim sub'ektlari faoliyati va ta'lim texnologiyalariga bog'liqdir.

Xususan, ona tilini ko'zi ojiz o'quvchilarga o'qitishda internet orqali ta'lim berish nihoyatda samarali natijalarni beradi. Chunki o'rganilayotgan har bir materilga oid audio va video ma'limotlar joylashtirilgan bo'lib ta'lim oluvchilarining qo'shimcha manbalardan maqsadli foydalanishga sharoit yaratadi. Har bir o'quvchida o'rganishda til normalariga qatiy bo'ysungan ravishda o'rganishi bu avvalambor pedagogning bilim, ko'nikma va tajribasiga bevosita bog'liqdir.

**KO'RISHDA NUQSONIGA EGA BOLALARING PSIXOLOGIK
RIVOJLANISHI**

E.L.Goncharova fikriga ko'ra maxsus psixologiya –bu jismoniy va ruhiy nuqsonlari bo'lgan odamlarning rivojlanish muammolarini o'rganadigan, psixologik qo'llab-quvvatlashni maxsus shakllariga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydigan psixologiyaning bir sohasidir. Ular bilan o'tkazilgan korreksion mashg'ulotlar, avvalambor, ularda hissiyot va irodani shakllantirish, yaqin atrofdagilarga ijobjiy munosabatni rivolantirishga e'tibor qaratiladi. Odamning ijtimoiyligi uning biologik holati bilan ajratilgan emas. Shaxsning individligi boshidayoq kiritilgan va shaxsiy sifati keyinchalik yuzaga keladi. Kelgusida u yuqori shaxsiy darajasi bilan namoyon bo'ladi.

Ko'rishda nuqsonga ega bolalar bilan ishslashda muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi navbatda ularning potensial imkoniyatini inobatga olgan holda bajarilishi zarur. Biz tabiatdagi hodisalarни 90% ni ko'rish orqali qabul qilamiz. Bunday kishilar esa ma'lum bir sababga ko'ra bu imkoniyatdan mahrum bolganligi barchamizga sir emas.

Ular bilan olib boriladigan korreksion maqsadlarni qo'yish mobaynida uchta asosiy yo'nalish muhimdir. Bularidan biri rivojlanishning ijtimoiy holatini optimallashtirish uning ijtimoiy holatini yanada yuqori darajaga ko'tarish, boladagi yetakchi faoliyat turlarini rivojlanish va ishga doir psixologik hosilalarni shakllantirish, ularga korreksion ta'sir etishdan oldin aniq bir ishslash modelini tuzish kerak. Ularning umumiyligi, tipik, individual singari turlari mavjud. Korreksianing umumiyligi modeli - bu har bir shaxs taraqqiyoti, tevarak-atrof uni qamrab olgan olam haqidagi farazlarini chuqurroq, haqqoniy, kengroq bo'lishiga jamiyatdagi o'zgarishlar va ularni hozirgi faoliyatini analiz va sintez qila olish uchun zamin yaratadi. Bu modelda ko'zi o'jiz bolalarning sog'lig'i, mashg'ulotlarning vaqtiga aniq belgilanib olinadi. Tipik, ya'ni odatiy modelda esa amaliy harakatlarining turli komponentlarini o'zlashtirishga va shakllantirishga qaratilgandir. Uchinchi modelda esa

individual formasida bu o'z ichiga ko'zi ojiz bolalarning o'ziga xos bo'lgan shaxsiy juhatlarini inobatga oladi, ya'nikim uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti hisobga olinadi.

Har bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas, balki bir necha qavatdan iborat. Eng yaqin va birinchi qavat oilaviy muhitdir. Oilaga qaraganda kengroq qavatni bolaning qarindoshlari tashkil etadi. Va nihoyat, eng keng qavat ijtimoiy muhit hisoblanadi.

Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta'minlash bolaning o'zini xotirjam his qilishiga yordam beradi.

Korreksion ishlarning amalga oshirilishi bu faqatgina mutaxassislar bilangina cheklanib qolmay, balki uning oilasi ota-onalarining ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Otaonalarning assosiy vazifalaridan biri ko'zi ojiz bolada saqlanib qolgan barcha imkoniyatlarini rivojlantirish va shu jamiyatga moslashtirishdir.

Nima sababdan biz ko'proq oil ava unda yuz beradigan munosabatlarga e'tiborli bo'lamiz, nima sababdan oila maskanida o'zimizni yaxshi, baxtli his etsak, ishimiz yurishgandek, omadimiz chopgandek bo'ladi? Chunki oila bizning hayotimizdag eng aziz va muqaddas dargoh! Faqat oilagina insonning baxtli bo'la olishi, o'zini kimlargadir kerakli his eta olishi yoki bo'lmasa o'zini ezilgan, omadsiz sezishga sabab bo'ladi. Shunigdek, jamiyat taraqqiyotning kutilgan darajaga chiga olmasligi ,uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, uning inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom psixologik muhitli, nizo-janjalli, o'zaro mehr oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka -ukalariga nisbatan balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, xudbin, yurt shu manfaatlariga zid, tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli odam bo'lib yetishishi mumkin.

Oilada to'gri tashkil etilgan muhit bolalarga ma'naviy va axloqiy xislatlarini, ularning ijobiy tushunchalarini, dunyoqarashlarini shakllantirib boradi. Ularni hayotga, mehnatga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga imkon beradi. Demak, biz bu turdag bolalar bilan ishslashda ham ichki ham tashqi muhit sharoitiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ana shundagina biz sarflagan vaqtimiz, mehnatimiz va mablag'imiz o'zini oqlaydi va samarasini ko'rsatadi. Insondagi eng katta boylik bu salomatlikdir. Sog'lig'imizdag turli xil nojo'ya o'zgarishlar, albatta, hayot faoliyatimizdag jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa yo ruhiy yo bo'lmasa jismoniy jihatdan muammoga duch kelamiz. Masalan, bu holatni alohida yordamga muhtoj kishilarda, shuningdek, ko'rish nuqsoniga ega shaxslarda namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarning to'g'ri bajarilishi o'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbat uyuştirishi, muloqot o'rnatishi ularda chuqur taassurot qoldiradi va faollik ko'rsatish sari undaydi. Demak, yoshlarimizni "Yangicha O'zbekiston - Yangicha dunyoq rash" ruhida tarbiyalash uchun, yuqorida keltirilgan, yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillardan asrash va ularni yetuk, komil, madaniyatli, hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida kamol toptirishda oila, mahalla maktab doimiy hamkorlikda ish olib borsa maqsadga muvofiq bo'lar edi!

Inson zoti ovqatsiz bir oy, suvsiz bir hafta, havosiz bir daqiqa yashaydi, ammo umidsiz kishi esa bir soniya ham yasholmaydi. Ushbu jumla orqali biz nima demoqchimiz?, ya’ni bu turdagи bolalar bilan ishlash davomida ulardagи o’ziga bo’lgan ishonchini uyg’otish yanada mustahkamlash, bir so’z bilan aytganda motivatsiya berishimiz zarur. Ular ruhiyatida ishonch deb atalmish so’zi dominant holda yurishi darkor. Buning zamirida biz ko’rsatayotgan muolajalar, ham ma’nan ham moddiy jihatidan o’z mevasini beradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, tilni o’rganishda pedagogik texnologiyalar o’zining texnologik yondashuvi, texnologik madaniyati, pedagogik jarayonlari, tarbiya maqsadi, texnologik tizimi, shaxsga yo’naltirilgan ta’limi, pedagogik tashxislari, interfaol metodlari va bosh bir qator kategoriyalari bilan nuqsoni mavjud o‘quvchilarga tilni o’rganishda katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: —INNOVATSIYA-ZIYO||, 2019.
2. Farhad, T., & Khamraeva, Z. B. (2022, April). PROBLEMS AND SOLUTIONS IN CHILDREN'S FOOTBALL. In INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING (Vol. 1, No. 1, pp. 45-51).
3. Bahadirovna, K. Z. (2022). Activities of physical education teachers practical-pedagogical fundamentals. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4),

MILLIY QADRIYATLAR KO‘ZGUSI – KURASH

Darmenbaeva Klara Azatbay qizi
(O'zDJTSUNF) O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI NUKUS FILIALI
“Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasi stajyor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286411>

Annotatsiya – Ushbu maqolada kurash sport turning o‘zbek milliy qadriyati timsoli ekanligi haqida faktiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar – Kurash, sport, qadriyat, himoya, shakl, jang, himoya, musobaqa, polvon, o‘rin.

Abstract - This article contains factual information about the fact that wrestling is a symbol of the Uzbek national value of sports.

Keywords - Wrestling, sport, value, defense, form, fight, defense, competition, wrestler, place.

Ma’lumki, kurash sporti milliy qadriyatlар himoyasi bo’lib, ozida milliy g’urur, iftixor va yorug’ kelajakka ishonch tuyg’ularini mustahkamlashni ta’minlaydi. Kurashish san’ati ko’p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. Bu sport turi belgilangan qoidalar bo'yicha ikki sportchining yakkama-yakka olishuvidir. Kurash qadimda ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, antik olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rın oлган. Bugungi kunda milliy kurashning xilma-xil shakllari Gretsya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda mavjud. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida paydo bo'la boshladi. 1912- yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi(hozir unga 144 mamlakat a'zo, Xususan, mamlakatimiz unga 1993-yilda a'zo bo'lgan). Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. [1] Keyingi yillarda o'zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalovchi asosiy vositalardan biridir. Mutaxassislar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan Bronza davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon kurashi tasvirlangan. Yana bir artefaktda esa polvonlarning Kurash usullari namoyishi aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 mingyl ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganini anglatadi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishchiga, sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni — «Alpomish»dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi... [2]». Bu ta'rif zamonaviy Kurash qoidalariiga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Hamsa», «Holoti Pahlavon Muhammad», Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy», Z.M.Boburning

«Boburnoma» asarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o'rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon kabilar dovrug'i butun Sharqqa tanilgan. O'zbek xalq yakka kurashining belbog'li kurash deb nomlangan turi ham bor. Bunga taalluqli ko'plab topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar mavjud. 5 ming yil ilgari Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog'li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan.

O'zbek xalqining an'anaviy sport turlaridan biri bo'lmish kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash o'zbekcha so'z bo'lib, u qator qadimiylar sharq adabiy manbalarida yakkama-yakka olishuv va ijtimoiy ko'ngilochar sport turi sifatida tilga olingan. Ming yillik tarixga ega afsonaviy Alpomish eposida kurash olis o'tmishda O'zbekiston zaminida ommaviy tus olgan eng sevimli va nufuzli sport turi bo'lganligi yoritilgan. Qadimda va o'rta asrlarda yashab ijod etgan qator faylasuf va tarixchilar o'z asarlarida kurashni alohida ehtirom ila tilga olganlar. Kurash faollarining sa'y-harakatlari O'zbekiston bilan chegaralanib qolmadi. Ular 1992-yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Monako va Rossiyada o'tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o'zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh qosh bo'ldilar. 2020-yil 4-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ- 4881-son qarori asosida «Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiysi» ishlab chiqildi. Unda kurash milliy sport turini yanada ommalashtirish va rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolar va ularni bartaraf qilish vazifalari belgilandi. Shu bilan birga Kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning insonparvar g'oyalarini keng targ'ib qilish orqali jahonda O'zbekiston nufuzini oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Yusupov K., Kurash, T., 1999;
- 2.Mo'minov A., Prezident. Sport. G'alaba!, T., 2001.
3. <https://yuz.uz/uz/news>
- 4.Shodi Bobomurodovich Umurov. Milliy kurashning ommaviylashividagi xalq bohodirlarining o'rni. Central asian academic journal of scientific research. 2021.

**INGLIZ TILIDA POLISEMANTIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLER
TABIATI**

Normurodov Kamol Ikromovich

*Jizzax davlat pedagogika institute Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasiga
Katta o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286420>

Annotatsiya – Ushbu maqolada ingliz tilida polisemantik frazeologik birliklar tahlil qilingan. Tahlillar qiyosiy metod yordamida tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar – sintaktika, polisemiya, monosemiya, sinonimiya, omonimiya, paronimiya, antonimiya, birlik, polisemantik qator, polisemantik sturktura, frazeologik birlik, ma’no, frazeologizm, matn, leksika, sath, tekst, ibora, bo‘lim, gap, til.

Abstract – This article analyzes polysemantic phraseological units in English. The analyzes were studied using the comparative method.

Key words - syntax, polysemy, monosemy, synonymy, homonymy, paronymy, antonymy, unit, polysemantic series, polysemantic structure, phraseological unit, meaning, phraseologism, text, lexicon, level, text, phrase, section, speech, language.

Ma'lumki, polisemantik frazeologik birlikda grammatick tabiatning boshqa bir turi – ma'nolariga ko'ra sintaktik xoslanish ham uchraydi. Masalan, katta gap frazeologik birligi birinchi ma'nosida (“diqqatga sazovor”) gap bo'lagi ya'ni kesim sifatida bo'lib keladi, ikkinchi ma'nosida esa (“qanoatlanishga yetarli”) shart ergash gapga bosh gap sifatida keladi. Frazeologik birlik til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabaitga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologik birlik deyiladi: tepe sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi; to show the white feather, to play the first fiddle. Frazeologik birlik ibora, frazeologizm, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda polisemiya hodisasini qiyosiy –tipologik tahlil qilish quyidagi o'xshash va farqli jihatlarning aniqlanishiga olib keldi: O'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda frazeologik birliklarning ikki turi borligi ko'rsatildi: 1) frazeologik butunlik; 2) frazeologik chatishma; Frazeologik butunlik – ma'nosи tarkibidagi so‘zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ifodalaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi: belni bog'lamoq, yog' tushsa yalagudek; Frazeologik chatishma – ma'nosи tarkibidagi so‘zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi: xamir uchidan patir, oyog'i olti qo'li yetti bo'lib; Ingliz tilida ham frazeologik birliklar ma'no jihatiga ko'ra turlarga ajratilgan, ammo o'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida frazeologik birliklarning uch turi borligi ko'rsatilgan: 1) frazeologik birlik (phraseological unity); 2) frazeologik chatishma (phraseological fusions); 3) frazeologik qo'shilma (phraseological combinations or collocations); Frazeologik birliklarning bu ma'no turlarini o'zbek tili bilan qiyoslaganda frazeologik birliklar (phraseological unities) va frazeologik chatishmalar (phraseological fusions) o'zbek tilida ham o'z aksini topgan. Lekin frazeologik qo'shilmlar (phraseological combinations or collocations) o'zbek tilida ma'no guruhlari orasiga kiritilmagan bo'lsada, ular ba'zida frazeologik butunliklar mavjud.

Quyidilarning ba’zilari erkin bog’lanmalarga ham kiritiladi. Masalan, to gain victory, to attain success, to make a report kabilar ingliz tilida frazeologik birliklarning ma’no turlariga ko’ra guruhlariga kiritilsa, ular o’zbek tilida erkin bog’lanmalarga kiritiladi. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o’rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya kabi hodisalari o’zbek tilida keng tadqiq qilingan. Ingliz tilida esa bu hodisalarning o’rganilishi nisbatan umumiy leksikologiya tarkibida o’rganilib, ular so’zlarga nisbatan kamroq uchraydi. Shuningdek, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalarni o’rganishda polisemiya hodisasining katta ahamiyatga ega ekanligi ko’rildi. Sinonimik va antonimik munosabatlar polisemantik frazeologik birliklarda har bir ma’noga nisbatan alohida belgilanadi. Ayni bir ma’nolilik monosemantik frazeologik birliklar o’rtasida belgilanadi. Agar sinonimik yoki antonimik munosabatda polisemantik frazeologik birlik qatnashsa, frazeologik birlikdan emas, balki konkret frazeologik ma’nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma’no o’zicha sinonimga yoki antonimga ega bo’lishi yoki ega bo’lmasligi mumkin. Masalan, ixlos qo’ymoq monosemantik frazeologik birligi bino qo’ymoq polisemantik frazeologik birligining uchinchi ma’nosiga sinonim yoki to open gate frazeologik birligi to give way polisemantik frazeologik birligining beshinchi ma’nosiga sinonim. Xuddi sinonimik munosabatda bo’lganidek, antonimik munosabatda ham polisemantik frazeologik birliklarda har bir ma’noga nisbatan alohida belgilanadi. Masalan, esidan chiqmoq monosemantik frazeologik birligi xayoliga kelmoq polisemantik frazeologik birligining ikkinchi ma’nosiga antonimik munosabatda bo’ladi. Shuningdek, ingliz tilidagi to be in a high spirits monosemantik frazeologik birligi to be all to pieces polisemantik frazeologik birligining ikkinchi ma’nosiga nisbatan antonimik munosabatda bo’ladi.

Yana bir misol keltirsak, ingliz tilidagi let fly frazeologik birligi uch ma’noli : 1) “jahli chiqmoq”, 2) “tosh otmoq”, 3) “erk bermoq”. Bu frazeologik birlikning ikkinchi va uchinchi ma’nolari birinchi ma’nosidan o’sib chiqqan. Leksemada bosh leksik ma’no, odatda, to’g’ri ma’no bo’ladi. Frazeologik birlikda esa bosh frazeologik ma’no ko’chma ma’no bo’ladi. Chunki frazeologik birlikning bosh ma’nosini ham, hosila ma’no kabi, ustama ko’chma ma’no tarzida gavdalanadi, ma’lum obrazga asoslanadi. Demak, frazeologik birlikning tabiatini to’g’ri ma’noni istisno qilib qo’yadi. Polisemantik frazeologik birlikda lug’aviy ma’noni va uning taraqqiyotini semik tahlil metodikasi bilan o’rganish bu hodisalarni ravshanroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Bir frazeologik birlikka xos ma’noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma’noning miqdori o’zgaradi. Bir frazeologik ma’no asosida ikkinchi frazeologik ma’noning tug’ilishi ikki xil hodisaga – polisemiyaga yoki omonimiyaga olib keladi. Ammo ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan frazeologik omonimlar juda oz. Bu esa o’z isbotini ko’ngil ochmoq, to feel one’s oats kabi frazeologik birliklarda o’z isbotini topgan. Ma’lumki, polisemiyalar har bir tilda o’ziga xos ahamiyatga ega. Shu jumladan, ingliz va o’zbek tillarida ham alohida o’ziga xos xususiyatlarga ega shu bilan birga, ularning farqli jihatlari ham bor.

O’zbek tilida polisemiyalar ingliz tilidan farqli ravishda ikki turga bo’linadi: 1) Grammatik polisemiyalar; 2) Lug’aviy polisemiyalar; Lug’aviy polisemiyalar – lug’aviy birliklardagi ko’p ma’nolilik hodisasi, ya’ni mustaqil so’zlardagi ko’p ma’nolilik hodisasi. Masalan, joy, qo’l so’zlaridagi polisemiyalar hodisasi. Ingliz tilida ham bu hodisa mavjud bo’lsada, ammo o’zbek tilidagidek muayyan guruhga ajratilmagan. Grammatik polisemiyalar – grammatik birliklardagi ko’p ma’nolilik hodisasi. Masalan, -ga qo’shimchasi birinchidan yo’nalganlik, ikkinchidan atalganlik ma’nolarini bildiradi: Ukamga tikildim. Ukamga oldim. Ingliz tilida ham bu hodisa mavjud bo’lib, u faqatgina qo’shimchalardagi ko’p

ma'nolilik bo'lib hisoblanadi. Masalan, -er suffaksi kasb egasi (teacher, painter), jihoz, asbob (boiler, eraser) larni anglatuvchi so'zlarga qo'shilib polisemantik affiksga aylangan.

O'zbek tilida polisemantik so'zlar leksik ma'nolarining boshqa turkum vazifasini bajara olish yoki bajara olmaslik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: - sodda polisemantik so'zlar; - murakkab polisemantik so'zlar; Shuningdek, polisemantik so'zlarning ma'nosи yuzaga chiqishi uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Chunki polisemantik so'zlar bir qancha leksik ma'nolarga ega bo'lib, kontekstda esa u faqat bir ma'nosи bilan qatnashadi. Ingliz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda polisemantik so'zning ma'nosini aniqlashtiruvchi kontekstlar uchga bo'linadi: 1) Leksik kontekst; 2) Grammatik kontekst; 3) Ekstralengvistik kontekst; Bir frazeologik birlikka xos ma'noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma'noning miqdori o'zgaradi. Bir frazeologik ma'no asosida ikkinchi frazeologik ma'noning tug'ilishi ikki xil hodisaga – polisemiyaga yoki omonimiyyaga olib keladi. Frazeologik polisemiya deganda frazeologik birlikning o'zi ikki va undan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi tushuniladi.

Tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz tilida ham xuddi shunday frazeologik birliklarning ma'nolari kontekstda namoyon bo'ladi. Masalan, gain ground frazeologik birligi uch lug'aviy ma'noni anglatadi: 1) "qurshab olmoq, yoki ega bo'lmoq", 2) "rivojlanmoq", 3) "yojilmoq". Har uch ma'no leksik kontekstda namoyon bo'ladi: birinchisida siyosatni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida shaxsiy munosabatlarni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa hissiyotni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi. Shu bilan birga ingliz tilida kontekstning ahamiyatga ega ekanligi frazeologik birlik bilan erkin bog'lanma orasida namoyon bo'ladi. Masalan, to let the cat out of the bag frazeologik birligi siri oshkor qilmoq lug'aviy ma'noga ega, ammo bu frazeologik birlik erkin bog'lanma sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bu esa frazeologik birlikdan tashqaridagi kontekstda o'z isbotini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Алехина А.И. Идиоматика современного английского языка. М., 1982.
- 2.Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., 1963.
- 3.Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. - М., 1969.
- 4.Buranov D. A practical course in English lexicology. – Т., 1990.
- 5.Вакуров В.Н. Основы стилистики фразеологических единиц. М., 1983.
- 6.Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. М., 1977.
- 7.Гаврин С. Г. Вопросы лексики, фразеологии и синтаксиса. Перль, 1974.
- 8.Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. – М., 1979.

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MUNOSABATLARIDA YANGI POG'ONA

Naimjonova Zarnigor Nizom qizi
Tashkent State University of Oriental Studies
«International relations and World Politics» master's student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286431>

Annotatsiya – Ushbu maqolada O'zbekiston va Germaniya munosabatlar xronologiyasi va rivoji haqida to'xtalib o'tilib, bugungi munosabatlardagi yangi pog'ona haqida ilmiy fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar – Strategiya, hamkor, munosabatlar, xronologiya, tashqi savdo, yalpi ichki mahsulot, hukumat, muloqot, tashqi savdo aylanma.

A NEW LEVEL IN THE RELATIONS OF UZBEKISTAN AND GERMANY

Naimjonova Zarnigor Nizam's daughter,
Tashkent State University of Oriental Studies
"International relations and World Politics" master's student

Abstract - This article focuses on the chronology and development of relations between Uzbekistan and Germany, and gives a scientific opinion about the new stage in today's relations.

Keywords - Strategy, partner, relationship, timeline, foreign trade, gross domestic product, government, communication, foreign trade turnover.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Germaniyani o'zining ishonchli va strategik hamkori sifatida qabul qiladi. Mamlakatlarimizni chuqur tarixiy ildizlar bog'lab turadi. Biz bugungi maqolamizda munosabatlar xronologiyasi va rivoji haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Germaniya – O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 31 dekabrda tan olgan va 1992 yil 6 mart kuni mamlakatimiz bilan diplomatik aloqalarni o'rnatgan davlat. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 17 va 30 avgust hamda 2022 yil 14 mart, 29 avgustda Germaniya prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer, shuningdek, 2021 yil 18 avgustda kansler Angela Merkel bilan qo'ng'iroqlashgan – jami 5 ta telefon orqali muloqot. O'zaro manfaatli munosabatlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi hukumatlar, parlamentlar va ishbilarmonlar aro hamkorliklar ham yildan yilga faollashib borgan.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston va Germaniya o'rtasida jami 145 ta shartnoma imzolangan bo'lib, shundan 92 tasi davlatlararo va hukumatlararo, 20 tasi idoralararo va 33 tasi boshqa xususiyatga ega. O'zaro manfaatli munosabatlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi hukumatlar, parlamentlar va ishbilarmonlar aro hamkorliklar ham yildan yilga faollashib borgan.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston va Germaniya o'rtasida jami 145 ta shartnoma imzolangan bo'lib, shundan 92 tasi davlatlararo va hukumatlararo, 20 tasi idoralararo va 33 tasi boshqa xususiyatga ega. Birgina 2021 yilda Germaniyadan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,1 milliard dollarni (+37,5 foiz) tashkil etib, ular neft-gaz va farmatsevtika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan. 2022 yil yakuniga ko'ra, bu ko'rsatkich 769,1 million dollarni tashkil qildi.

O‘zbekistonda Germaniya sarmoyasi ishtirokida 219 ta korxona faoliyat yuritmoqda, ulardan 97 tasi yakka tartibdagi tadbirkordir. 31 ta nemis kompaniyasining vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o‘tgan. O‘zbekistonda:

- 980 ta maktabda 270 mingga yaqin o‘quvchi nemis tilini o‘rganadi, bu yerda 3 mingdan ortiq o‘qituvchi dars beradi;
- 24 ta maktabda nemis tili, shulardan 6 tasida chuqur o‘rganiladi;
- Germaniyaning 30 dan ortiq universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 1 mingga yaqin o‘zbekistonlik talabalar, aspirantlar va doktorantlar Germaniyaning turli universitetlari va tadqiqot markazlarida tahsil olishadi.

Shuningdek, Gyote instituti, K. Adenauer, F. Ebert fondlari, Germaniya xalq universitetlari assotsiatsiyasining xalqaro hamkorlik instituti vakolatxonalarini, Xorijdagagi maktablar markaziy boshqarmasining nemis tili bo‘yicha maxsus maslahatchi-koordinatori idorasi O‘zbekistonda faoliyat yuritadi. Germaniya xayriya tashkilotlari tomonidan o‘zbekistonlik bemor bolalarning Germaniya klinikalarida bepul davolanishini tashkil etish, shuningdek, tibbiy asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta’minlashda gumanitar yordam ko‘rsatilmoqda. “Friyedensdorf International” xalqaro xayriya tashkiloti va “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasining qo‘shma gumanitar aksiyasi ham O‘zbekistondagi bemor bolalarni Germaniyaga davolanishga jo‘natish maqsad qilgan.

Shuningdek, keyingi yillarda ikki tomonlama munosabatlari barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotir. Buni ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi so‘nggi 5 yil ichida ikki baravar oshganligida ko‘rish mumkin. Birgina 2022-yil yakuniga ko‘ra, ikki tomonlama savdo ko‘rsatkichlari yana 50 foizga ko‘paydi va birinchi marta 1 milliard yevrodan oshdi. Sarmoyaviy hamkorlik va sanoat kooperatsiyasida ham izchil dinamika kuzatilmoqda. O‘zbekistonda Germaniya kapitali ishtirokida tashkil etilgan korxonalar soni bir necha yil ichida qariyb 3 barobar ko‘payib, 200 tadan oshdi. 2017-yildan beri o‘zlashtirilgan nemis investitsiyalarining umumiy miqdori 11 barobar o‘sgan va bugungi kunda 4 milliard yevrodan ortiqni tashkil etmoqda.

Germaniyaning MAN, CLAAS, Knauf, GP Papenburg, Viessmann, Deutsche Kabel, LEMKEN kabi ko‘plab kompaniyalari O‘zbekistonda faol va muvaffaqiyatli biznes yuritib, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirmoqda. Berlin shahrida 2-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Germaniya Federativ Respublikasiga tashrifi arafasida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston – Germaniya biznes forum ham ushbu fikrlarimizni yaqqol tasdig‘idir. Forumda Germaniya ishbilarmon doiralarining e’tibori mamlakatimizda xorijiy investorlarning qulay mehnat qilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, O‘zbekiston iqtisodiyotining kuchli tomonlariga qaratildi.

Energetika, kimyo, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati, metallurgiya, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish, elekrotexnika, shuningdek, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash sohalari uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning eng istiqbolli yo‘nalishlari sifatida taklif etildi.

Germaniya biznesi vakillari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasini, jumladan, mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilganini yuqori baholadi. Hamkorlikni oshirish, yangi qo‘shma loyihalarni ishlab chiqishga qat’iy niyatlarini borligi bildirildi. Biznes-forum O‘zbekiston va Germaniya vazirlik, idoralari, yetakchi kompaniyalari rahbarlari o‘rtasida “G2B” muzokalarini hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlari kesimidagi aniq misollar va loyihamalar taqdimoti bilan davom etdi.

Mubolag‘asiz aytish mumkinki, forum yakunlari bo‘yicha qator sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishilgani shubhasiz, ikki tomonlama munosabatlarning yangi bosqichini boshlab beradi. Ushbu tashrif yakunlari bo‘yicha

erishilgan kelishuvlar esa ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo‘lida O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlar ko‘lamlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu tashrif chinakam tarixiy voqea bo‘ldi. Chunki bu tarix, albatta, yurtimiz manfaati, xalqimiz farovonligi uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu jihatdan, o‘zaro munosabatlardagi tarixiy voqea bo‘lgan mazkur tashrif milliy manfaatlarimizga uyg‘un ravishda ikki tomonlama hamkorlikni yangi pog‘onaga ko‘tarishi xalqaro munosabatlarimiz uchun yangi pog‘onadir, desak mubolog‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G‘ofurov U.V., To‘xliyev B.K. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2009
- 2.Rasulov, B., Ma’rufxojayev I., Xalqaro munosabatlar silsilasi., Toshkent., 2023
- 3.Usmonova A., Sarkarov D., Xorijiy davlatlar O‘zbekiston nighida. Urganch., 2021.
- 4.Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar. 1998. №3. P.14

TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Djuraeva Aziza Temirovna
Samarqand Pastdarg'om tuman 3-sон kasb-hunar maktabi ingliz tili
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8311525>

Annotation: nowadays, when learning a language is mastering some new knowledge in our daily life, of course, it uses different ways to keep them in mind: for example, tries to read carefully, tries to repeat from time to time, discusses it with others, writes down the necessary places in a side book. Of course the frame of these styles also gives its positive effect when carried out consistently and orderly. However, the problem is that language learners have a brief overview of a particular language learning strategy in the terms of these styles.

Keywords: interactive method, content-based education, teacher-oriented, student-oriented, imaging, stimulation.

Annotatsiya: Hozirgi kunda til o'rganish kundalik hayotimizda biror-bir yangi bilimni o'zlashtirayotganida, albatta, ularni yodida saqlab qolish uchun turli xil yo'llardan foydalanadi: masalan, diqqat bilan o'qishga harakat qiladi, vaqtiga vaqtiga bilan takrorlab turishga urinadi, uni boshqalar bilan muhokama qiladi, kerakli joylarini yon daftariga yozib qo'yadi.

Kalit so'zlar: interfaol usul, mazmunga asoslangan ta'lif, o'qituvchiga yo'naltirilgan, o'quvchiga yo'naltirilgan, tasvirlash, rag'batlantirish.

Chet tillar o'qitish metodikasi hozirgi zamon talabiga qarab rivojlanib bormoqda. Bunda til o'rganuvchilarining psixologiyasi va boshqa tilni qanday o'zlashtirishiga qarab xorijiy tillar o'qitilayotgan davlatlarning chet tili o'qitish metodlarini o'rganib chiqib, ushbu usullar, yoki yangi mos keluvchi usullar ishlab chiqilmoqda va ular amaliyotga tadbiq etilmoqda. Demak ushbu jarayonda chet tillarni o'qitish terminlari ham o'rganiladi va yangilanib boradi. Yurtimiz hududida ingliz, ispan, nemis fransuz tillari hamda arab, turk, fors, xitoy tillari o'qitilib kelinmoqda. Ta'lif muassasalarimizda ushbu tillarni o'qitish metodikasiga oid yangi usul va metodlarni qamrab olishda zamon bilan hamnafas bo'lishni talab etadi. Yana shuni aytib o'tishimiz kerakki, tillar (ona tili, ikkinchi til, chet tili)ni o'qitish jarayoni turlicha amalga oshiriladi. Ona tili ijtimoiy muhit orqali rivojlanib, keyin o'rgatilsa, ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rgatiladi. Chet til o'rganuvchilar o'rtaqidagi muloqot, asosan, dars jarayonida olib boriladi. Uchala tilni o'rganish va o'rgatish jarayoni o'ziga xos jihatlariga ega bo'lib, til o'qitish nazariyasi orqali ushbu jihatlar o'rganilib boriladi. Avvalo tilni o'qitish metodikasida qo'llaniladigan terminlarni o'rganish ushbu sohani chuqurroq o'rganish, uni anglash, undagi yutuqlar va muammolarni yechimini topish imkonini yaratadi. Bizning tadqiqotimiz metodika fanlarini emas, undagi qollanadigan faol so'zlar, soz birikmalari, gaplar va biz termin deb atashga davo qilayotgan til o'qitish metodikasi terminlari tarjimasi va qiyosiy tahlili bilan mashg'ul bo'lamiz.

Ma'lumki, ta'lif jarayoni ikki yirik tarkibiy qismidan, ya'ni o'rgatish va o'rganish jarayonlaridan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi- pedagoglarning'roli ahamiyatlidir. Sababi, aynan ularning'o'zları o'quvchi- talabalarning sifatli bilim olishlari, o'tilayotgan fanlarni

yxsho o'zlashtirishlari, hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda ularga to'g'ri yo'l-yo'rqlar ko'rsatish uchun mas'uldirlar.

Ushbu o'rinda, tinglovchilarning til o'rganish jarayonida bir qator strategiyalar mavjudligidan bexabar ekanliklari yoki ulardan to'g'ri foydalana olmasliklari ham asosiy sabablardan biri hisoblanadi. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida, so'nggi paytlarda xorijiy tillarni o'qib-o'rganish orqali zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lish mamlakatning'taraqqiy etishi va gullab- yashnashida muhim o'rin tutuvchi intellectual salohiyatning'ko'tarilishiga zamin yaratmoqda. Til o'rganish sohasida yangi pedagogik texnologiyalarining joriy etilishi, noan'anaviy dars uslublarining qo'llanilishi va zamonaviy ilmiy adabiyotlarning yaratilishiga qaramay hali ham ko'pchilik ikkinchi til o'rganuvchilarda til o'rganish bilan bog'liq qiyinchiliklar majudligi ko'zga tashlanmoqda. Bunga bir necha sabablar keltirish mumkin. Dunyoda halqlar ko'p, har bir xalqning o'zining tili, madaniyati, urf-odati bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Zero, xalq o'zligini namoyon qilishda tilning o'rni kattadir. Xorijiy tillarni o'rganishga sabab ham shundadir, chunki nemis, ingliz, fransuz tillari dunyo tillari ichida o'z o'rniga egadir. Buyuk tilshunos tadqiqotchi R.Oksfordning ta'kidlashicha: "Eng muvaffaqiyatli til o'rganuvchilar odatda o'zlarining bilim darajalariga, ehtiyojlariga, maqsadlariga hamda o'zlarida mavjud bo'lgan manbaalar va vazifalarga mos keluvchi strategiyani tanlay oладilar va ulardan samarali foydalanadilar". Ya'ni, bu o'rinda o'z-o'zini taftish qilish ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tgan. Ba'zida, til o'rganuvchi kundalik hayotimizda biror-bir yangi bilimni o'zlashtirayotganida, albatta, ularni yodida saqlab qolish uchun turli xil yo'llardan foydalanadi: masalan, diqqat bilan o'qishga harakat qiladi, vaqt-vaqt bilan takrorlab turishga urinadi, uni boshqalar bilan muhokama qiladi, kerakli joylarini yon daftariga yozib qo'yadi. Albatta bu uslublarning hammasi ham izchil va tartibli amalga oshirilganda o'zining ijobiy samarasini beradi. Biroq, muammo shundaki, til o'rganuvchilar bu uslublarning aslida ma'lum bir til o'rganish strategiyasining'tarkibiy qismi ekanligini anglamasdan bajaradilar. Natijada, yuqorida uslub- vositalarning samaradorlik darajasi past bo'lishi tabiiy holdir. Ilg'or metodlar chet tilini puxta o'zlashtirishda kompos vazifasini o'taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanishdir. Rolli o'yinlar bu real hayotimizdag'i turli situasiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi.

Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat Yo'ldan o'tayotib yo'l qoidasiga rioxha qilmagan bolani ya'ni o'tish bo'lмаган yo'lни kesib o'tadi. 3- holat. Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi. 4 Ushbu situasiyalar bo'yicha sahna ko'rinishlari ijro etiladi. Bunday hayotiy rolli o'yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Rolli o'yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o'rganadilar, o'z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o'rganadilar. Rolli o'yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik,grammatik va talaffuzdagi xatolarini to'g'irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to'g'irlash ham tilni o'rganishga yordam beradi va talabalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatadi. Dars jarayonida rolli oyinlardan foydalanish bir vaqtning ozida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari rolli oyinlar talabalarning chet tilini organizhga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli,quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, til o'rganishda o'qituvchi-pedagoglarning'ishtiroki katta ahamiyatga egadir. Sababi, ular o'quvchilarning qanday xislatlarga ega ekanliklarini aniqlashda, ularning salohiyatini baholashda katta amaliy yordam beradilar va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

CHEZ TILLARINI O'QITISHDA O'QUV METODIK TERMINLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitishda ko'plab manbalardan foydalanib, o'qitish usulini yangilab borishni talab etadi. Mana shu yangiliklar bilan birga borish o'qituvchidan juda ko'p manbalar o'qishni, turli malaka oshirish kurslarga qatnashishib, uzlusiz professional rivojlanishni, o'zini o'zi doimo isloq qilib turish talab etiladi. Masalan, TESOL, TEFL, CELTA, ESOL va boshqa shu kabi (qisqartmalar) xalqaro kurslarda xorijiy tillar (asosan ingliz tili) o'qituvchilari o'z salohiyatlarini oshiradilar. Yangi o'qitish usullarini o'rganish jarayonida o'qituvchilar turli o'quv metodik terminlarga duch keladilar. Bu terminlarning ba'zilari yangi bo'lsa boshqalari oldindan til o'qitish jarayonida qo'llaniladigan terminlar hisoblanadi. Shuningdek, chet tili (asosan ingliz tili) o'qituvchilari professional rivojlanish jarayonida xorijiy manbalardan foydalnishlari joizdir. Xorijdan (asosan ingliz tilida) ko'plab dastur va metodlarni olib kirish o'qituvchi nafaqat matndagi maxsus terminologik birliklarni taniy bilishni, ba'zan ularni mos ravishda maxsus terminlardan foydalanib tarjima qilish kerak bo'ladi. Buning uchun ikki tilda ham mos keladigan muqobil terminlarni topish bizning ishimizni maqsadini belgilab beradi. Bunday holatda maxsus matnlardagi ma'no o'zgarmaslik va adekvat tarjima qilish va ona tilining terminosistem normalariga qarab tarjima qilinishi talab etiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, o'rganilayotgan maxsus lug'atga tizimli yondashuvni qo'llashni, ya'ni pedagogika fanining maxsus bo'limiga kiruvchi leksik birliklarni, "chet tilini o'qitish metodikasi terminologik tizimi" sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Bu nafaqat uning alohida elementlari va terminlarining tizimli aloqalarini aniqlash, balki kelajakda adekvat tarjima qilish uchun ularning o'zgarish qonuniyatlarini kuzatish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining' 19.05.2021 yildagi PQ-5117-sod qarori.
2. "Ta'lim va texnologiya" ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami, 3-qism (2018-yil, yanvarb).Termiz shahri.
3. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 432 b.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ

1.	Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	5
2.	Alimjanova Shohsanam Azamat qizi INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA POLISEMANTIK IBORALARING O'RGANILISH BOSQICHLARI	7
3.	Begimqulova Zebiniso Saydivaliyevna QADRING BALAND BO'LSIN ONA TILIM	11
4.	Tursunova Marxabo Raxmonovna BADIY TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLAR O'RTASIDAGI FARQLAR	15
5.	P.НРахимов, А.Дж.Курбанова EUPHORBIA FRANCHETII (B.FEDTSCH), EUPHORBIA CANESCENS (L) BA EUPHORBIA HUMIFUSA (WILLD.) ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ ОШЛОВЧИ МОДДАЛАРИ МИКДОРИНИ АНИҚЛАШИ	18
6.	Akobirova Malika BOSHLANG'ICH SINF KO'RISHDA NUQSONI BOR O'QUVCHILARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH JARAYONIDAGI KREATIVLIK	23
7.	Darmenbaeva Klara Azatbay qizi MILLIY QADRIYATLAR KO'ZGUSI – KURASH	28
8.	Normurodov Kamol Ikromovich INGLIZ TILIDA POLISEMANTIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TABIATI	30
9.	Naimjonova Zarnigor Nizom qizi O'ZBEKİSTON VA GERMANİYA MUNOSABATLARIDA YANGI POG'ONA	33
10.	Djuraeva Aziza Temirovna TA'LIM TIZIMIDA XORIJİY TİLLARNI O'QITISHNING O'ZİGA XOSLIGI	36

Note!!! The numbers in the articles included in the journal "Innovation Science and Research" indicate that the information is correct and that the authors are personally responsible for the content of the article.

**International Scientific Journal
Innovation Science and Research
Volume 1 Issue 4**

LLC “Innovation Science and Research”

License №:083239 23.05.2023

Address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar District, Beshkurgan-3 1/84

Sciencejournal.uz, https://t.me/sciencejournals_uz, +998887804449